

Tarixiy qaror: Fanlar akademiyasi faoliyati takomillashtiriladi

Bugungi globallashtirish va jadal taraqqiyot sharoitida ilm-fan har bir davlatning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois O'zbekistonda ilmiy salohiyatni yuksaltirish, fan sohasini zamon talablari asosida rivojlantirish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Mazkur jarayonda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qaror ilm-fan rivojida yangi bosqichni boshlab beruvchi muhim hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugun, 29-dekabr O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida Davlatimiz Rahbarining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirni Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik Shavkat Ayupov olib bordi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari o'rinbosari Hilola Umarova, Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri E'zoza Karimova, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov, akademik va olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari direktorlari va tadqiqotchilari ishtirok etdi.



Muloqot davomida mamlakatimiz ilm-fani sohasi oldiga qo'yilgan muhim strategik maqsadlar hamda Davlatimiz Rahbarining Fanlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan qarori ijrosining ustuvor vazifalari muhokama qilindi.



Mazkur tarixiy qaror O'zbekiston ilm-fani rivojida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Unda Fanlar akademiyasi faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan aniq istiqbolli yo'nalishlar va samarali mexanizmlar belgilab berilgan.

Davlat taraqqiyotida ilm-fanning o'rni beqiyos ekanini inobatga olgan holda, qarorda ilmiy-tadqiqot muassasalarining salohiyatini oshirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash hamda fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa Fanlar akademiyasi zimmasiga yanada katta

mas'uliyat yuklaydi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur qaror Fanlar akademiyasini zamon talablariga mos, raqobatbardosh va natijaga yo'naltirilgan yetakchi ilmiy markazga aylantirishga xizmat qiladigan muhim strategik hujjat hisoblanadi.